

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-iyun 2019 yil

E'tibor bering:

2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 62,2 % tashkil etdi.

10763 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.


2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 27,3 birlikni tashkil qildi.

Toshkent shahrida hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2019 yilning yanvar-iyunida 10763 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 barobar ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (45,9%), sanoat tarmog'ida (16,4%), qurilish tarmog'ida (8,8%), yashash va ovqatlanishda (6,1%), tashish va saqlash (6,1%) aloqa va axborotlashtirish (3,3%) sohasiga to'g'ri keladi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1,1%)

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019 yilning yanvar– iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	Ulushi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	55824	68789	12965
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	6068	10763	4695
YaHM	%	64,3	62,2	-2,1
Sanoat	%	68,0	66,0	-2,0
Investitsiya	%	51,2	44,7	-3,5
Qurilish	%	72,9	76,4	
Savdo	%	76,6	73,9	-28,3
Xizmatlar	%	50,5	46,8	-3,7
Yuk tashish	%	69,3	66,8	-2,5
Yuk aylanmasi	%	12,2	12,2	0
Yo'lovchi tashish	%	76,9	77,9	1,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	81,5	80,6	-0,9
Eksport	%	22,5	20,2	-2,3
Import	%	63,9	63,7	-0,2

va mikrofirmalar


(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Toshkent sh.	6068	10763
tumanlar:		
Uchtepa	505	1577
Bektemir	138	393
Yunusobod	858	1232
Mirzo Ulug'bek	719	1010
Mirobod	508	788
Shayxantoxur	637	1003
Olmazor	612	1330
Sergeli	366	633
Yakkasaroy	498	673
Yashnabod	471	780
Chilonzor	756	1344


2019 - yilning yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Uchtepa tumanida - 1577 ta, Chilonzor tumanida - 1344 ta, Olmazor tumanida - 1330 ta, Yunusobod - 1232 ta, Mirzo-Ulug'bek - 1010 ta Shayxantohur - 1003, Mirobod, Yakkasaroy, Sergeli va Yashnobod tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 788-633 tani tashkil etgan.

Eng past ko'rsatkichni , Bektemir-393 tani tashkil etgan.

kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Uchtepa tumanida -14,7%, Chilonzor tumanida -12,5%, Olmazor tumanida -12,4%, Yunusobod tumanida -11,4%, Mirzo-Ulug'bek tumanida -9,4%, Shayxontohur tumanida esa -9,3% ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Yashnabod tumanida -7,3%, Yakkasaroy tumanida -6,3%, Sergeli tumanida -5,9% va Bektemir tumanida 3,7% kuzatildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Jami	6068	10763
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	118	122
Sanoat	1212	1762
Qurilish	735	951
Savdo	1644	4942
Tashish va saqlash	257	345
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	504	652
Axborot va aloqa	318	350
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	90	135
Boshqa turdagi xizmatlar	1190	1504


2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 4942 ta, shuningdek :

- sanoatda** - 1762 ta;
- qurilishda** - 951 ta;
- xizmatda** - 652 ta
- tashish va saqlashda** - 345 tani tashkil etdi.

ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar


	yanvar-iyun 2019 y.	yanvar-iyun 2018 y.	farqi (+-)
Toshkent sh.	10763	6068	4695
Uchtepa tumani	1577	505	1072
Chilonzor tumani	1344	756	588
Olmazor tumani	1330	612	718
Yunusobod tumani	1232	858	374
Mirzo-Ulug'bek tumani	1010	719	291
Shayxontohur tumani	1003	637	366
Mirobod tumani	788	508	280
Yashnabod tumani	780	471	309
Yakkasaroy tumani	673	498	175
Sergeli tumani	633	366	267
Bektemir tumani	393	138	255

2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Uchtepa tumanida – 1072 ta, Olmazor tumanida - 718 ta, Chilonzor tumanida - 588 ta, Shayxontohur tumanida bu ko'rsatkich 366 tani tashkil etdi, Yunusobod tumanida - 374 ta, Sergeli tumanida - 267 ta. Yashnabod tumanida - 309 ta, Mirobod, Yakkasaroy, Mirzo-ulug'bek va Bektemir tumanlarida bu ko'rsatkich 291-175 tani tashkil etdi.




soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 53,2 Bektemir tumanida 48,6 Mirobod tumanida 40,4 Chilonzor tumanida 36,1. Mirzo-Ulug'bek va Yunusobod tumanida 27,5,birlikdan, Uchtepa tumanida 24,4, Sergeli tumanida 23,4, Olmazor tumanida-22.6, Yashnabod tumanida 22,1 va Shayxantohur tumanida 19,5 birlik o'rtacha ko'rsatkich bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 22,6 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 27.3 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 4.7 birlikka ko'paydi.




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 66,0 %, qurilishda - 76,4%, investitsiyada - 44,7%, savdoda - 73,9 %, eksportda - 20,2 %, importda - 63,7 % va xizmatlar sohasidagi - 46,8% ulushi aniqlanib ko'rsatilgan.


2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida



2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 62,2 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 64,3 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)



	Sanoat	Qurilish	Xizmat	Investitsiya
Toshkent sh.	66,0	76,4	46,8	44,7
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	88,3	99,0	82,7	67,2
Bektemir	71,1	38,3	94,5	94,8
Yunusobod	87,5	64,3	30,8	64,1
Mirzo-Ulug'bek	42,2	73,1	51,4	57,8
Mirobod	26,7	58,7	30,3	42,2
Shayxontohur	55,8	71,8	52,2	36,7
Olmazor	88,6	93,1	69,1	72,0
Sergeli	79,2	98,6	44,7	10,6
Yakkasaroy	82,9	96,9	69,1	75,9
Yashnabod	67,4	89,7	33,4	55,7
Chilonzor	86,1	73,2	51,8	52,4

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Olmazor (88,6 %), Uchtepa (88,3 %) va Olmazor (88,6 %) Yunusobod (87,5 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Uchtepa (99,0), Yashnabod (99,3 %), Sergeli (98,6 %), Yakkasaroy (96,9 %), va Olmazor (93,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Bektemir (94,5 %), Uchtepa (82,7 %), Olmazor va Yakkasaroy (69,1 %dan) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Bektemir (94,8 %), Yakkasaroy (75,9 %), Olmazor (72,0%), Uchtepa (67,2%) va Yunusobod (64,1%) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar– iyunida

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16124,9 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 66,0)

8089,1 mlrd so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 44,7 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 122,5%ni tashkil qildi;

5722,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari hajmining 76,4%) bajarildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 116,7 %ni tashkil qildi;

13024,9 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 46,8) 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 %ni tashkil qildi;


Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 73,9 % yoki 13063,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 101,3 %ni tashkil qildi;) shakllantirildi;

286,5 mln.dollari (umumiy export hajmining 20,2 %) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) export qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 94,0 % tashkil qildi;


Avtomobil transporti yuk aylanmasining 66,8% (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,5 %) ko'payishi ta'minlandi;

Yo'lovchi aylanmasining esa 77,9%(umumiy yo'lovchi aylanmasining 1,0%) ni tashkil qildi;

hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Bektemir tumanida - 98,7 %, , Chilonzor tumani - 93,4 %, Yakkasaroy tumani - 81,9 %,Uchtepa tumani - 74,0 % Shayxontohur tumani - 24,2 %, Yashnabod tumani - 79,1 %, Olmazor tumani - 52,2 %, Sergeli tumani - 32,4 % va Yunusobod tumanida - 14,3 %, eng past ko'rsatkichni Mirzo-Ulug'bek– 10,3 % va Mirobod tumanlari - 2,0% ni tashkil



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnabod tumani (2064,1 mlrd.so'm), Olmazor tumani (1972,7 mlrd.so'm), Sergeli tumani (1822,7 mlrd.so'm) Bektemir tumanida (1742,2 mlrd.so'm) Yunusobod tumani (1649,6 mlrd.so'm) Chilonzor tumani (1303,8 mlrd.so'm) va Shayxontohur tumani (1272,1 mlrd.so'm) Uchtepa tumani (1170,6 mlrd.so'm) Yakkasaroy tumanida (1121,4 mlrd.so'm) Mirzo-Ulug'bek (1071,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Mirobod tumanida (934,4 mlrd.so'm), ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (88,6%), Uchtepa tumani (88,3%), Yunusobod tumani (87,5%), Chilonzor tumani (86,1%), Yakkasaroy tumani (82,9%), S e r g e l i t u m a n i (7 9 , 2 %) , Bektemir tumani (71,1%), Yashnabod tumani (62,6). Shayxantohur tumani (55,8%), Mirzo Ulug'bek tumani (42,2%), Shayxantohur tumani (55,8%), va Mirobod tumanida (26,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (1809,6 mlrd.so'm), Yunusobod (1744,6 mlrd.so'm), Shayxantohur tumani (1540,7 mlrd.so'm) Uchtepa tumani (1462,5 mlrd.so'm), Bektemir (1302,7 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.






Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo Ulug'bek (707,1 mlrd.so'm), Yakkasaroy (686,2 mlrd.so'm), Mirobod (673,5 mlrd.so'm), Yunusobod (635,8 mlrd.so'm) Shayxantohur (608,0 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Shayxantohur tumanida (1567,9 mlrd.so'm), (1463,7 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (1520,0 mlrd.so'm), Yunusobod (1496,6 mlrd.so'm), Chilonzor tumanida (1463,7 mlrd.so'm), va Mirobod (1271,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil il - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 600 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalar - 99 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 16,6 %), qurilish - 54 (9,0 %), savdo - 260 (43,3 %), xizmatlar sohasi - 181 (30,2 %).


2019 yil II chorak bo'yida kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining ulushi Uchtepa va Olmazor tumanida - 13,3 %, Uchtepa 12,2%, Chilonzor va Yunusobod tumanida - 11,8 %, Mirzo Ulug'bek tumanida - 10,8 %, Shayxantohur hamda Mirobod tumanida 8,2%dan, Yashnabod hamda Sergeli tumanida 7,3%, Yakkasaroy tumanida - 7,2 %, va Bektemir tumanida 2,5% ni tashkil qildi.

2019 yil II-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikro-firma va kichik korxonalarining hududlar do'yicha taqsimlanishi.birlikda.


2019 yil II-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikro-firma va kichik korxonalarining hududlar do'yicha taqsimlanishi - Uchtepa va Olmazor tumanlarida 78 tadan, Chilonzor tumanida 73ta, Yunusobod tumanida 63 tani, Shayxantaxur tumanida 55 ta, Yashnabod va Mirzo Ulug'bek tumanlarida 50 tadan, Yak-kasaroy tumanida 40 ta, Sergelida 31 ta, Mirobod tumanida 28 ta va Bektemir tumanida 20 tani tashkil etgan.




Kuzatuv ma'lumotlari tahliliga ko'ra, iqtisodiy vaziyatni 18,8% korxonalarda qulay, 72,0% korxonalarda qoniqarli, qurilish sohasida respondentlarning 27,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 64,8 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 20,8 % va 71,9 %, xizmatlar sohasida – 14,4 % va 74,6 %, sanoatda – 17,2 % va 70,7 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 12,1 %, qurilishda – 7,4 %, xizmatlarda – 11,0 % va savdoda – 7,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 56,6 % sanoat korxonalari, 63,5 % – savdo, 65,2 % – xizmatlar va 77,8 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: A.Chutbaev

Tel.: (71) 230-88-09, 230-88-29